

THE DIPLOMATIC AND CULTURAL SIGNIFICANCE OF UNESCO'S 43RD SESSION FOR UZBEKISTAN

Mavlanova Dilrabo Farxotjon qizi

*2nd-year student of the Political Science program University
of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan,*

Tel.: (93) 962-83-06

E-mail: mavlonovadilrabo2705@gmail.com

Annotation. *This article analyzes the diplomatic, cultural, and symbolic significance of the 43rd YUNESKO Session held in 2025 in Samarkand for the Republic of Uzbekistan. It examines President Shavkat Mirziyoyev's address, the participation of international delegations, the expansion of cultural diplomacy, and the strengthening of national heritage policies. The study evaluates the session's impact on Uzbekistan's global standing and its long-term cultural strategy.*

Keywords: *YUNESKO, Samarkand, cultural heritage, diplomacy, Uzbekistan, international cooperation.*

YUNESKONING 43-SESSIYASINING O'ZBEKISTON UCHUN DIPLOMATIK VA MADANIY AHAMIYATI

Mavlonova Dilrabo Farxotjon qizi

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti "Siyosatshunoslik" yo'nalishi 2-bosqich talabasi,*

Tel.: (93) 962-83-06

Elektron pochta: mavlonovadilrabo2705@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 2025-yilda Samarqand shahrida o'tkazilgan YUNESKOning 43-sessiyasi O'zbekiston uchun diplomatik, madaniy va ma'naviy jihatdan qanday strategik ahamiyat kasb etgani tahlil qilinadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu sessiyadagi nutqi, xalqaro delegatsiyalarning ishtiroki, madaniy diplomatiya imkoniyatlarining kengayishi va milliy meros siyosatining kuchayishi asosiy yo'nalish sifatida yoritiladi. Sessiyaning O'zbekistonning global maydondagi nufuziga ko'rsatgan ta'siri ilmiy nuqtai nazardan baholanadi.*

Kalit so'zlar: *YUNESKO, Samarqand, madaniy meros, diplomatiya, O'zbekiston, xalqaro hamkorlik.*

ДИПЛОМАТИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ 43-Й СЕССИИ ЮНЕСКО ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

Мавланова Дилрабо Фархотжон кизи

студентка 2 курса направления «Политология»

Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана,

Тел.: (93) 962-83-06

Электронная почта: mavlonovadilrabo2705@gmail.com

***Аннотация.** В статье анализируется дипломатическое, культурное и символическое значение 43-й сессии ЮНЕСКО, состоявшейся в 2025 году в Самарканде, для Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется выступлению Президента Шавката Мирзиёева, участию международных делегаций, расширению возможностей культурной дипломатии и укреплению государственной политики в сфере наследия. Оценивается влияние сессии на международный имидж Узбекистана и долгосрочную стратегию страны в сфере культурного наследия.*

***Ключевые слова:** ЮНЕСКО, Самарканд, культурное наследие, дипломатия, Узбекистан, международное сотрудничество*

Bugungi globallashuv davrida xalqaro munosabatlar faqat siyosiy va iqtisodiy maydon bilangina cheklanib qolmay, madaniy, gumanitar va intellektual resurslar asosida ham shakllantirilmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda, YUNESKO tashkiloti xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, madaniy merosni asrab-avaylash hamda ta`lim sohasida ilgari surilgan ilg`or tashabbuslarni qo`llab-quvvatlashda muhim tashkilotlardan biri hisoblanadi. 2025-yil 30-oktabrdan 13-noyabrga qadar Samarqand shahrida o`tkazilgan YUNESKO Bosh Konferensiyasining 43-sessiyasi O`zbekiston tarixida ham, tashkilot faoliyati tarixida ham alohida sahifa bo`lib kirgan yirik diplomatik voqea bo`ldi. Buning asosiy sababi tashkilotning navbatdagi sessiyasi so`nggi qariyb 40 yil ichida ilk bor Tashkilot qarorgohidan tashqarida o`tkazilganligi bo`ldi. Mazkur eng yirik xalqaro forumning Samarqandda o`tkazilgani O`zbekistonga nisbatan xalqaro ishonchning ortganidan dalolat beradi. Mazkur konferensiyaning muvaffaqiyatli yakunlanishi mamlakatning global madaniy diplomatiyadagi mavqeini

keskin mustahkamlab, uning xalqaro maydondagi tashabbuskorligini yangi bosqichga ko'tardi¹.

Sessiya doirasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqi, 190 davlatdan kelgan delegatsiyalar ishtiroki, 150 dan ortiq tadbirlarning o'tkazilgani², shuningdek, tarixda ilk bor "O'zbekiston xalqi va hukumatiga minnatdorlik ifodasi" nomli maxsus rasmiy hujjatning qabul qilinishi mamlakatning diplomatik nufuzi va madaniy salohiyatini global miqyosda tan olinishini ifodaladi³. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida bu ishonchni "Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı, jadal islohotlarga berilgan yuksak baho" sifatida qayd etdi⁴. Bu jarayon nafaqat O'zbekiston tashqi siyosatining muvaffaqiyatidir, balki mamlakatning qadimiy merosi, zamonaviy rivojlanish strategiyasi va xalqaro hamkorlikka sodiqligining ham yorqin isbotidir.

Sessiya ochilishida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqi jarayonning mazmun-mohiyatini belgilab berdi. Prezident xalqaro hamjamiyatni umumiy merosni asrash va insoniyatning madaniy rishtalarini mustahkamlashga da'vat etib, O'zbekistonning ushbu yo'nalishdagi prinsipial pozitsiyasini ta'kidladi. Davlat rahbari madaniy meros nafaqat tarixiy xotira, balki barqaror rivojlanishning muhim omili ekanini qayd etib, YUNESKO doirasida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan yangi tashabbuslarni taqdim etdi. O'zbekistonning boy madaniy merosini dunyoga tanitish sessiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Ishtirokchilar uchun Samarqandning tarixiy markazi, Siyob bozori, Afrosiyob manzili, shuningdek,

¹ UNESCO. General Conference, 43rd session. – Samarkand, 2025. (Rasmiy hujjatlar va rezolyutsiyalar).

² Samarqandda UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochildi // Gazeta.uz. – 2025-yil 30-oktabr.

URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/30/unesco-open/>

³ UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi yakunlari to'g'risida. O'zbekiston xalqi va hukumatiga minnatdorlik ifodasi // O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. – 2025-yil 13-noyabr.

URL: <https://gov.uz/oz/mfa/news/view/101949>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochilish marosimidagi nutqi. – Samarqand, 2025-yil 30-oktabr.

URL: <https://president.uz/uz/lists/view/8610>

“Registon” maydonida tashkil etilgan madaniy dasturlar namoyish etildi. Bu tadbirlar mamlakatning turizm salohiyatini oshirish, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish hamda madaniy brend sifatida O‘zbekiston qiyofasini mustahkamlashga xizmat qildi. Samarqandning YUNESKO ro‘yxatidagi maqomi, tarixiy markazining betakrorligi ham sessiyaning ramziy, ham amaliy jihatdan muvaffaqiyatiga xizmat qildi⁵. 2800 dan ortiq delegatning ushbu qadimiy shahardan olgan taassurotlari O‘zbekistonning turizm, madaniyat diplomatiyasi va global imijiga katta hissa qo‘shdi. 43-sessiya raisi Xondker Talhaning O‘zbekiston rahbariyatiga bildirgan minnatdorligi, boshqa delegatlarning “Bu faqat diplomatik emas, ma’naviy tajriba bo‘ldi” degan baho esa O‘zbekistonning madaniy kuch diplomatiyasini (soft power) yanada yuksaltirdi.

Prezident tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar mazmunan keng qamrovli bo‘lib, YUNESKOning asosiy yo‘nalishlari — ta’lim, madaniyat, ilm-fan, axborot xavfsizligi va gender tengligi kabilar bilan to‘liq uyg‘unlashgan. Avvalo, inklyuziv ta’lim, sun’iy intellekt va raqamli taraqqiyot doirasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar bo‘yicha qqator takliflar kiritildi. Xususan, alohida ehtiyojli bolalar uchun global inklyuziv ta’lim platformalarini yaratish, “Sun’iy intellekt — maktab” namunaviy loyihasini ishlab chiqish hamda sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha xalqaro ekspertlar anjumani tashkil etish shular jumlasidandir. Bu tashabbuslar YUNESKOning XXI asr chaqiriqlariga — texnologiyalar etikasi, raqamli tengsizlik, ta’limning kelajagi kabi masalalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keladi. O‘zbekiston bu yo‘nalishlarda global muhokamalarga faol ulanishi bilan o‘zining innovatsion davlat sifatidagi qiyofasini mustahkamladi.

Bundan tashqari, jahon nomoddiy madaniy merosini saqlab qolish maqsadida YUNESKO “Jahon xotirasi” dasturini rivojlantirish, 19-noyabrni “Hujjatli meros xalqaro kuni” sifatida e’lon qilish, Raqamli meros bo‘yicha xalqaro institut tashkil etish takliflari ham ilgari surildi. Bu takliflar O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi yutuqlari sifatida 14 ta nomoddiy meros elementi YUNESKO ro‘yxatiga kiritilganini, Xiva, Buxoro, Shahrisabz va Samarqandning xalqaro maqomini samarali mustahkamlaydi.

⁵ UNESCO. World Heritage List & Intangible Cultural Heritage of Uzbekistan. – 2025.

Uchinchi masala doirasida esa YUNESKO Ayollar yetakchiligi akademiyasini tashkil etish, Samarqandda ayollarning Ta'lim, madaniyat va fan sohasidagi global forumini o'tkazish kabi takliflar ishlab chiqilgan. Bu tashabbuslar O'zbekistonning gender siyosatini xalqaro maydonga olib chiqdi hamda mamlakatni ayollar huquqlarini ilgari suruvchi mintaqaviy markaz sifatida ko'rsatdi.

Qolaversa, bugungi davrning dolzarb ahamiyatli masalalaridan biri bo'lgan iqlim inqiroziga qarshi kurashning samarali kechishi uchun "YUNESKO ekologik poytaxti" global tashabbusi, iqlim o'zgarishi sharoitida madaniy merosni himoya qilish" to'g'risidagi rezolyutsiyasi va shu mavzu doirasida Xivada xalqaro simpozium o'tkazish takliflari kiritildi. Bu tashabbuslar Orol dengizining tiklanishi, mintaqaviy ekologik diplomatiya va O'zbekistonning global ekologik siyosatdagi rolini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, zamonaviy davrning virtual makonidagi axborot xurujlari, jamoatchilik fikrini chalg'itish va diskriminatsiyaga qarshi choralar sifatida media savodxonlik strategiyasini ishlab chiqish, bolalar madaniy kontenti festivali, islomofobiyaga qarshi hamkorlik: Imom Buxoriy, Moturidiy, Termiziy, Naqshband kabi markazlar bilan ilmiy loyihalar. Bu tashabbuslar O'zbekistonni xalqaro intellektual va diniy-ma'rifiy markaz sifatida mustahkamlaydi.

YUNESKO sessiyasi O'zbekiston uchun nafaqat diplomatik muvaffaqiyat, balki milliy o'zlikni anglash va ma'naviy tiklanish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'ldi. Mamlakatning tarixiy-madaniy merosi jahon hamjamiyati tomonidan yana bir bor e'tirof etildi. O'zbekiston ilgari surgan tashabbuslarning qo'llab-quvvatlanishi, yangi yodgorliklarni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish bo'yicha muzokaralarning faollashuvi, ilmiy ekspeditsiyalar va restavratsiya dasturlarining kengayishi sessiyaning amaliy natijalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, YUNESKOning 43-sessiyasi O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi madaniy-diplomatik o'rnini mustahkamladi, milliy meros siyosatining global darajadagi dolzarbligini namoyon qildi va mamlakatning tarixiy merosni asrash borasidagi uzoq muddatli strategiyasida yangi bosqichni boshlab berdi. Sessiya O'zbekistonni madaniy integratsiya, ilmiy hamkorlik va diplomatik aloqalarning mintaqaviy markaziga aylantirish jarayonini sezilarli darajada jadallashtirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

¹ UNESCO. General Conference, 43rd session. – Samarkand, 2025. (Rasmiy hujjatlar va rezolyutsiyalar).

² Samarqandda UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochildi // Gazeta.uz. – 2025-yil 30-oktabr.

URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/30/unesco-open/>

³ UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi yakunlari to‘g‘risida. O‘zbekiston xalqi va hukumatiga minnatdorlik ifodasi // O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. – 2025-yil 13-noyabr.

URL: <https://gov.uz/oz/mfa/news/view/101949>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochilish marosimidagi nutqi. – Samarqand, 2025-yil 30-oktabr.

URL: <https://president.uz/uz/lists/view/8610>

⁵ UNESCO. World Heritage List & Intangible Cultural Heritage of Uzbekistan. – 2025.